

“T A S D I Q L A N G A N”

**“O‘zkimyosanoat” AJ
Kuzatuv kengashining
2021-yil 11-oktyabrdagi
3-son bayoni bilan**

**“O‘ZKIMYOSANOAT” AJning
2021-YIL UCHUN
BIZNES REJASI**

MUNDARIJA

1.	“O‘zkimyosanoat” AJ tarkibiy o‘zgarishlari haqida	3
2.	Sanoatning mavjud va prognoz salohiyati	7
3.	Bozor va marketing konsepsiyasi	12
4.	2020-yilning asosiy natijalari	19
5.	2021 yil uchun asosiy vazifalar	20
6.	2021 yilgi moliyaviy ko‘rsatkichlar prognozi	24

1. «O'zkimyosanoat» AJ tarkibiy o'zgarishlari haqida

Kimyo sanoati korxonalarini va tashkilotlarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda ular faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, tarmoq korxonalarini aksiyalashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, kimyo ishlab chiqarishini rivojlantirish, texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Kimyo sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2001-yil 13-martdagi 124-son qarori bilan "O'zkimyosanoat" kimyo sanoati korxonalarini uyushmasi tugatildi va uning o'rniga "O'zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil qilindi.

2004-yilda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha to'liq tuzilmani yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2004-yil 23-yanvardagi 33-son qaroriga muvofiq "O'zqishloqxo'jalikkimyo" DAK tugatilib, "O'zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga "Qishloqxo'jalikkimyo" HAJ kiritildi.

Vazirlar Mahkamasining "O'zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkiliy tuzilmasini qisman o'zgartirish to'g'risida" 2004-yil 31-martdagi 154-son va "Mashinasozlik tarmogini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2004-yil 5-maydagi 208-son qarorlariga asosan "O'zkimyosanoat" DAKning tarkibiga "Elektroximzavod" QK AJ va "Toshkent kimyo ilmiy-tadqiqot instituti" DUK qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son Farmoniga muvofiq "O'zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati deb nomlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'simliklarni himoya qilish va qishloq xo'jaligiga agrokimyoviy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 24-oktyabrdagi PQ-2640-son qaroriga muvofiq "O'zagrokimyohimoya" AJ tashkil etildi. "O'zkimyosanoat" AJ tarkibidan 13 ta "Qishloqxo'jalikkimyo" HAJ chiqarilib, «O'zagrokimyohimoya» AJ tarkibiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 12-apreldagi PQ-2884-son qarori bilan "O'zkimyosanoat" AJ tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi va jamiyatning asosiy vazifalari va faoliyati belgilab berildi:

ishlab chiqarish sarf-xarajatlari va kimyo korxonalarini tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxi darajasiga ta'sir o'tkazuvchi omillarni chuqur tahlil etish, resurs va energiya tejaydigan zamonaviy texnologiya va uskunalarni, ishlab chiqarish jarayonlari va sotuvlarni boshqarishning eng yangi elektron-axborot tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning materiallar sig'imini kamaytirish, boshqaruv xodimlari sonini va noishlab chiqarish sarf-xarajatlarini

optimallashtirish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxini tubdan pasaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

tarmoqda ishlab chiqarishni yanada diversifikatsiyalashga, mamlakat mineral xom ashyo resurslari zaxiralarni tobora chuqurroq qayta ishlashga, yuqori qo'shilgan qiymatli xaridorgir sifatli kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni va tarmoq korxonalarida texnologik xavfsizlikni ta'minlaydigan yuqori texnologiyali zamonaviy uskunalar va innovatsion texnologiyalarni tarmoqqa keng joriy etishga yo'naltirilgan yagona texnik siyosatni amalga oshirish;

kimyo sanoati mahsulotlarining jahon konyunkturasi tendensiyalarini chuqur o'rganish va buning asosida jahon bozorlarida xaridorgir bo'lgan kimyo buyumlarining xilma-xil turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, mahalliy mahsulotlarni yangi tashqi bozorlarga olib chiqish;

import bo'yicha respublikaga olib kelinayotgan kimyo mahsulotlarini tahlil qilish va kimyo ishlab chiqarishlarini mahalliyashtirish darajasini muttasil chuqurlashtirib borish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini, shu jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlari bilan respublikamizning yirik korxonalari o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish;

respublika qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini agrotexnologiya normalariga muvofiq mutanosib nisbatdagi azot, fosfor, kaliy va kompleks o'g'itlar bilan barqaror ta'minlash;

faol investitsiya siyosatini yuritish, loyiha ishlari, ularning ekspertizasini takomillashtirish, tarmoqqa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish;

"O'zkimyosanoat" AJ tuzilmasiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samaradorligini oshirishga ko'maklashish, ularda zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish va takomillashtirish;

yangi raqobatdosh, innovatsion texnologiyalar, mahsulot turlari yaratish va joriy etishga, mahsulotga energiya va resurs sarfini kamaytirishga, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar, shu jumladan, tarmoqlararo ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini egallagan, bozor sharoitlarida ishlarni samarali tashkil eta oladigan muhandis-texnik va boshqaruv kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgustdagi №PQ-3246-son "Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori bilan O'zkimesanoat "AJ tizimida tashqi savdo kompaniyasi — "O'zkimyoimpeks" MCHJning eksport-import operatsiyalari bo'yicha yagona agent tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari belgilangan:

chuqur marketing tadqiqotlarini o'tkazish, kimyo sanoati mahsulotiga jahon konyunkturasi tendensiyalarini o'rganish va shu asosda mahsulot sotiladigan istiqbolli xorijiy bozorlarni aniqlash va eksportga mahsulot yetkazib berish geografiyasini kengaytirish;

mahalliy korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish, shu jumladan zamonaviy logistika tizimini keng tatbiq etish, chet ellarda savdo uylari va vakolatxonalar tashkil etish, ularga konsignatsiya va boshqa shakllardagi shartnomalar asosida tovarlar jo'natib turish yo'li bilan shunday mahsulotlarni xorij bozorlarida sotishni kengaytirish;

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkaziladigan tender (tanlov) savdolarida, xalqaro savdo-sanoat ko'rgazmalarida, yarmarka va boshqa shunga o'xshash tadbirlarda mahsulotni keng namoyish etishni ta'minlash va uning sotilishini rag'batlantirish, kimyo sohasining eksport salohiyati to'g'risidagi axborotni ommalashtirish;

"O'zkimyosanoat" AJ tashkilotlarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda chet ellardan uskunalar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallar tovarlar, xizmatlar xarid qilishni tashkillashtirish;

ishonchli xorijiy xaridorlar bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish, kimyoviy mahsulotlar eksporti hamda "O'zkimyosanoat" AJ tashkilotlarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan uskunalar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallar importi bo'yicha ular bilan shartnomalar tuzish;

mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarishni tashkillashtirish bo'yicha takliflar va marketing hisobotlarini tayyorlagan holda kimyo sanoati mahsulotlariga bo'lgan talab tendensiyalari va mahsulot sotiladigan istiqbolli bozorlarni o'rganib chiqish;

kimyo sanoati mahsulotlarining narxlarini tahlil qilish, tashqi bozorlarning o'zgaruvchan konyunkturasini hisobga olgan holda eng foydali narxda va yo'nalishlarda mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish;

eksport bo'yicha sotilgan mahsulotlar uchun mablag'larning o'z vaqtida kelib tushishini, shuningdek, import qilinayotgan uskunalar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallar shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda yetkazib berilishini ta'minlash;

"O'zkimyosanoat" AJ tashkilotlariga ularning mahsulotlarini eksportga chiqarishda, eksport oldidan moliyalashtirish shaklida, shu jumladan, tijorat banklarining kreditlarini jalb etish hisobiga tashkilotlarni avans bilan ta'minlash orqali ularga ko'maklashish;

milliy va jahon bozorlarining o'zgarayotgan konyunkturasiga tezkor munosabat bildirmoq, eksportchi korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotlarga chet ellardan salohiyatli xaridorlarni izlash, kimyo mahsulotlarini eksportga chiqarishda zamonaviy logistika tizimini keng joriy etish, shuningdek mahalliy korxonalarda raqobatdosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga xorijiy hamkorlar buyurtmalarini joylashtirish;

mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan kimyo sanoat mahsulotlarini tashqi bozorlarda himoya qilish, jumladan, mahsulot belgisidan va boshqa intellektual mulk obyektlaridan foydalanish orqali bo'ladigan nohalol raqobatchilikka qarshi harakat qilish;

“O‘zkimyosanoat” AJ tashkilotlarining bo‘sh turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududida qayta ishlash (tolling) operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha xorijiy kompaniyalarni jalb etish.

Belgilangan Dasturni amalda bajarish, kimyo sanoatini rivojlantirish va diversifikatsiyalashni jadallashtirish, birinchi navbatda davlat aktivlarini xususiy mulkka sotish orqali korxonalaridagi davlat ulushini kamaytirish hisobiga sanoatning investitsiya jozibadorligini oshirish maqsadida kimyo sanoatida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar rejasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsiya jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son qarori bilan tasdiqlandi va quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilandi:

tarmoqning ayrim korxonalari aktivlarini mahalliy va xorijiy investorlarga sotish orqali amaldagi ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish va kengaytirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish;

“O‘zkimyosanoat” AJ tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish va jamiyat boshqaruvi organlarining mustaqilligi va mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish;

kimyo tarmog‘i korxonalarining faoliyati samaradorligini oshirish va moliyaviy holatini yanada yaxshilash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori bilan O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning yangi sharoitida kimyo sanoatini rivojlantirishni strategik jihatdan isloh qilish, kimyo sanoatini o‘zgartirishning asosiy uzoq muddatli strategik yo‘nalishlari belgilandi, shu jumladan:

texnologik transformatsiya — mahalliy xom ashyodan yarim tayyor mahsulotlarni, shu jumladan organik sintez va nanotexnologiyalar orqali ishlab chiqarishning yangi quvvatlari negizida xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan ko‘p pog‘onali qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratish. Bunda, qayta ishlanmagan xom ashyo (tabiiy gaz, sanoat tuzlari, paxta sellyulozasi, sirka kislotasi va boshqalar) resurslarini mamlakat hududida chuqur qayta ishlashni tashkil etish orqali ularni xom ashyo sifatida eksport qilinishini bosqichma-bosqich qisqartirish;

xo‘jalik munosabatlari tizimini transformatsiya qilish — birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar bilan kimyo sanoati korxonalari o‘rtasidagi munosabatlar sohasida davlat tomonidan aralashuvga chek qo‘yish va eskicha reja-taqsimlash tizimidan batamom voz kechish;

mulkiy munosabatlar tizimini transformatsiya qilish — sohada yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga xususiy kapitalni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali kimyo korxonalarida davlat ulushini keskin

kamaytirish va kimyo sanoati korxonalarini xususiylashtirish, shuningdek, korxonalar faoliyatiga davlat hokimiyati organlari aralashuvining oldini olish;

raqamli transformatsiya — moliyaviy, moddiy va kadrlarga oid resurslar harakatini boshqarish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni markirovkalash, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobini yuritish tizimlarini joriy etish uchun sohaga zamonaviy dasturiy ta'minot tizimlarini tatbiq etish;

ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi munosabatlar transformatsiyasi — innovatsiya jarayonlarini tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni transfer qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar asosida fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi tizimini yo'lga qo'yish;

kadrlar tayyorlash tizimining transformatsiyasi — sohada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, shuningdek, mavjud va yangi barpo etiladigan ishlab chiqarish quvvatlarini yuqori malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislar bilan ta'minlash.

2. Sanoatning mavjud va prognoz salohiyati

O'zbekiston kimyo sanoati mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadigan asosiy segmentlaridan biridir. Aynan kimyo sanoati deyarli barcha tarmoqlarni xom ashyo, turli materiallar va mahsulotlarni yetkazib beruvchisi bo'lib, ularning rivojlanish ko'lami, yo'nalishi va samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston bozorida qator yirik korxonalar faoliyat yuritmoqda, masalan "Navoiyazot" AJ, "Maksam-Chirchiq" AJ, "Farg'onaazot" AJ, "Ammofos-Maksam" AJ, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ, "Qo'ng'iro't soda zavodi" MCHJ, "Birinchi rezinoteknika zavodi" MCHJ va boshqalar.

O'zbekistonda kimyo sanoatining ishbilarmonlik jozibadorligining asosiy omillari, avvalo, zarur xom ashyo, malakali mehnat resurslari, rivojlangan aloqa tarmog'i, bank va yuridik xizmatlar tarmog'i hamda nisbatan arzon energiya manbalari hisoblanadi.

Tashkil qilinganidan boshlab O'zbekiston kimyo sanoati birinchi navbatda mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan edi. O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoati korxonalarini har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichining ustuvor milliy vazifalari bilan bog'liq.

Bugungi kunda kimyo sanoati muhim ishlab chiqarish, xom ashyo va ilmiy-texnik salohiyatga ega. Bu respublika sanoat ishlab chiqarishining qariyb 2 foizini tashkil etadi. Sohada ish bilan band bo'lganlar soni 30 ming kishiga yaqin tashkil qiladi.

Ishlab chiqarilayotgan kimyoviy mahsulotlar iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari ehtiyojlari uchun yetkazib beriladi: qishloq xo'jaligi (mineral o'g'itlar, defoliantlar, kimyoviy o'simliklarni himoya qilish mahsulotlari), mebel sanoati (formalin, karbamid, karbamid-formaldegid smolasi), kon-metallurgiya sanoati

(natriy sianidi, poliakrilamidlar, tiomochevina, nitrat kislotasi, ammiakli suv), elektron va elektrotexnik sanoati (epoksid smolasi), neft va gaz sanoati (uniflok, K-9 mahsuloti, burg'ilash reagenti), qurilish sanoati (kalsiylangan soda, natriy nitrat), oziq-ovqat sanoati (sirka kislotasi) va boshqalar.

“O‘zkimyosanoat” AJ korxonalarini ishlab chiqaradigan mahsulotlar turiga ko‘ra, quyidagi asosiy ishlab chiqarish majmualariga ajratish mumkin:

mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish kompleksi;

energetika, oltin qazib olish, kimyo sanoati uchun noorganik moddalar va kimyoviy reagentlar ishlab chiqarish majmuasi;

o‘simliklarni himoya qiluvchi kimyoviy vositalar ishlab chiqarishi;

kalsiylangan soda ishlab chiqarishi;

polimer va rezina buyumlar ishlab chiqarishi.

Hozirgi kunda “O‘zkimyosanoat” AJ korxonalarida 170 dan ortiq turdagi kimyoviy mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Hozirgi bosqichda sanoatning asosiy vazifasi, ayniqsa, muhim turdagi mahsulotlar uchun xom ashyo mustaqilligiga erishish uchun yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirish orqali xomashyo importi hajmini sezilarli darajada kamaytirishdir. Ushbu maqsadga erishish eksport qilinadigan mahsulotlar turini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish, mahalliy resurslardan foydalanish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, chet ellik sheriklar bilan qo‘shma korxonalar tashkil etish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali sanoatning eksport salohiyatini oshirishni o‘z ichiga oladi. Sanoatning zamonaviy tuzilishi asosini ishlab chiqarilgan mineral o‘g‘itlar, birinchi navbatda, azot va fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish tashkil qiladi, bu sanoat yalpi mahsulotining yarmidan ko‘pini tashkil etadi.

So‘nggi yillarda sintetik materiallar va polimerlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash hamda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish jadal sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Hozirgi kunda soha korxonalarida modernizatsiya, ishlab chiqarish sexlarini qayta jihozlash va yuqori texnologiyalar asosida uskunalarni yangilash ishlari olib borilmoqda.

Jahon bozorida raqobatbardosh, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaradigan zamonaviy korxonalarni yaratish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan xorijiy va ichki investitsiyalarni jalb qilish orqali fosforli o‘g‘itlari ishlab chiqarishni kengaytirish yaqin kelajakda kimyo sanoatini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston sanoatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan kimyo sanoatini rivojlantirish uchun keng istiqbolli imkoniyatlar mavjudligini ta’kidlash mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratishga, shuningdek mahsulotlar uchun yangi bozorlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun

dunyoning yetakchi ishlab chiqaruvchilarini jalb qilish muhim yoʻnalish boʻlib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikada qator yangi obyektlar foydalanishga topshirildi, shu munosabat bilan turdosh tarmoqlar uchun xomashyo bazasini rivojlantirish zarurati yuzaga keldi.

Toshkent viloyatida "Angren" maxsus sanoat zonasi tashkil etilishi bilan "Konveyer lentolari, qishloq xoʻjaligi va avtomobil shinalari ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasini amalga oshirish uchun noyob imkoniyat paydo boʻldi. Zavod qurilishi Xitoyning "Poly Technologies2 kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi. Obyektning birinchi bosqichi 2018-yilning dekabr oyida foydalanishga topshirildi.

Ushbu loyiha nafaqat mahalliy «GM-Oʻzbekiston» avtomobil ishlab chiqaruvchisini avtomobil shinalari bilan taʼminlash, balki qoʻshni mamlakatlarga mahsulot eksport qilish, qoʻshimcha malakali ish oʻrinlari yaratish imkonini beradi.

Bugungi kunda "Birinchi ryezintexnika zavodi" Markaziy Osiyoda yagona shina mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati 3 million dona avtomobil shinasini, 200 ming dona qishloq xoʻjaligi shinasini va 100 ming dona konveer tasmasini tashkil etadi.

Sanoatdagi eng yirik korxonalar "Navoiyazot" AJda:

2019-yilning dekabrda 100 ming tonna PVX, 75 ming tonna kaustik soda ishlab chiqarish majmuasi ishga tushirildi;

2020-yilning birinchi yarmida yiliga 500 ming tonna quvvatga ega nitrat kislota ishlab chiqarish yoʻliga qoʻyildi;

2020-yilning dekabr oyida quvvati 660 ming tonna boʻlgan ammiak va yiliga 577,5 ming tonna sigʻimga ega karbamid ishlab chiqarish majmuasi ishga tushirildi.

Xalq xoʻjaligi tarmoqlarining kimyo mahsulotlariga boʻlgan talabi ortib borayotganini inobatga olib, 2021-yilda yangi ishlab chiqarish obyektlarini tashkil etish rejalashtirilmoqda, joʻmladan:

"Navoiyazot" AJda metanol asosida karbamid-formaldegid konsentrati (KFK-85) va karbamid-formaldegid smolasi;

"CENTRAL AZIA CHEMIKAL" MCHJ da natriy lauret sulfat (LSN), chiziqli alkilbenzenesulfonik kislota (LABSK) va yuvish kukunlari;

"Maksam-Chirchiq" AJda vanadiy katalizatori;

burgʻilash, qurilish, oziq-ovqat va tibbiyot sanoati uchun karboksimetilsellyuloza asosidagi reagentlar;

"Toshkent kislorod zavodi" Davlat unitar korxonasi negizida tibbiy kislorod.

Ayni paytda "Oʻz kimyosanoat" AJ korxonalari kimyoviy mahsulotlarining qariyb 30 foizini Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy, Eron bozorlariga, shuningdek qoʻshni mamlakatlarga eksport qilmoqda.

Shu bilan birga, kimyoviy mahsulotlar turlari va assortimentini kengaytirish, mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, ishlab chiqarish tannaxsini pasaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar to'liq qo'llanilmayapti va respublika qishloq xo'jaligida fosforli o'g'itlarga bo'lgan ehtiyoj qondirilmay qolmoqda.

Kimyo sanoatini yanada diversifikatsiya qilish, yangi ishlab chiqarishlarni yaratishga to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalarni jalb qilish xamda ichki va tashqi bozorda talab qilinadigan mahsulotlar turini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsiya jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son qarori bilan "2019-2030-yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi" tasdiqlandi. Unda iqtisodiyot tarmoqlarida talab katta bo'lgan yangi turdagi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ular asosida ishlab chiqarish klasterlari yaratish bilan sanoat korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan.

Respublika iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun innovatsion kimyoviy texnologiyalarni rivojlantirish, jahon standartlari darajasiga javob beradigan loyihalash ishlarini amalga oshirish, shuningdek kimyo sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun infratuzilma va tegishli sharoitlar yaratish talab etiladi xamda sohada ilmiy salohiyatni oshirish.

Kasbiy mahorat va bilim darajasini oshirish, rivojlangan ilmiy va ishlab chiqarish aloqalarini shakllantirish, kimyo sohasida fanni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni jalb qilish, ilmiy salohiyatni kimyo sohasidagi innovatsion ishlanmalarga jalb qilish maqsadida fanlarni ishlab chiqish, ilmiy g'oyalarni rivojlantirish, fan, dizayn va ishlab chiqarish o'rtasida yaqin aloqalarni o'rnatish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-son qaroriga binoan Koreya tadqiqot instituti bilan hamkorlikda Kimyoviy texnologiyalar tashkiloti (KRIKT) tomonidan "Kimyo texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti" va "O'zkimyosanoatloyiha" AJ negizida ilmiy-loyihalash instituti – Kimyo texnologiyalari markazini yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-sonli qaroriga asosan "Navoiyazot" AJ, "Farg'onaazot" AJ negizida va Qoraqalpog'iston Respublikasida jami uchta kimyoviy klasterini tashkil etish rejalashtirilgan.

Hozirgi kunda xorijiy investorlar bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra "Navoiyazot" AJ kimyoviy klasterida umumiy qiymati 2,6 mlrd. dollarlik bo'lgan 16 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish va mahalliy aholi uchun 1863 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoat klasterida umumiy qiymati 686,7 million dollarlik 3 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish va 920 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan.

"Farg'onaazot" AJ sanoat klasterida umumiy qiymati 334,4 mln. dollarlik 4 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish va 425 ta yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan.

Yuqorida qayd etilgan ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun asosiy xomashyo tabiiy gazdir.

3. Bozor va marketing konsepsiyasi

Kimyo sanoati xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, kimyoviy zavodlarda ishlab chiqariladigan moddalar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida qo'llaniladi va kundalik hayotning barcha sohalarida uchraydi. Har qanday mamlakatda kimyoviy ishlab chiqarishni rivojlanishi umuman mamlakat taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Qo'shimcha qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlarni eksport qilish korxonalarining qo'shimcha foyda olishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, bunday tarmoqlarning mavjudligi ma'lum bir mahsulotni chet eldan yetkazib berishdan mustaqillikni kafolatlashi mumkin.

Keng ma'noda kimyo sanoati mahsulotlarining aksariyati (ro'zg'or uchun kimyoviy moddalar yoki qurilish bo'yoqlari nazarda tutilmasa) aksariyat hollarda kimyoviy korxonalarining o'zlari uchun xom ashyo bo'lib, ularda yuqori qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar qayta ishlanadi. Bir necha bosqichlardan keyingina xom ashyo oxirgi iste'molchiga to'qimachilik, yog'ochni qayta ishlash, oziq-ovqat, qurilish, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik va boshqa barcha sanoat mahsulotlari shaklida yetib boradi.

Bugungi kunda dunyodagi eng yirik kimyoviy korporatsiyalar dunyoning yetakchi beshtaligiga kirgan Dow Chemical, LyondellBasell va DuPont kabi amerika kompaniyalari. Ulardan tashqari, Qo'shma Shtatlarda 170 yirik kimyo korxonalari mavjud. Ularning dunyo bo'ylab 1700 ta filiali va 2800 ta fabrikasi mavjud.

Yevropaning kimyo kompaniyalari (G'arbiy va Sharqiy Yevropa, MDH mamlakatlari) hozirgi vaqtda mahalliy xomashyo va boshqa tarmoqlarning chiqindilaridan foydalangan holda klassik turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha pozitsiyalarni egallab, bozorning beshdan bir qismini egallab turibdi.

Yevropa mintaqasi dunyodagi kimyo mahsulotlarini eksport qiluvchi (42,5%) va import qiluvchi (35,3%) hisoblanadi. Uglevodorodlarni va maxsus kimyoviy moddalarni chuqur qayta ishlash mahsulotlari Yevropa Ittifoqida sotilishning yarmini tashkil yetadi. Asosiy kimyoviy moddalar, maxsus kimyoviy moddalar va uy kimyoviy moddalari eksport qilinadi. Yevropa Ittifoqi doirasidagi eksport tashqi eksportga qaraganda deyarli ikki baravar ko'p (NAFTA mamlakatlari (AQSH, Kanada va Meksika) va Osiyo).

Dunyoning 2000 ta eng yirik davlat kompaniyalarining yillik Forbes reytingi COVID-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan global iqtisodiy inqiroz ko'lamini tahlil qildi.

Global 2000 ro'yxatiga kiritilgan kompaniyalarning aksariyati bozor qiymati 2019-yilda faoliyati to'xtatilishi tufayli, 2020 yil o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada tushib ketdi, ko'p kompaniyalar mahsulot sotishlari kamaydi.

Bugungi kunda eng yirik kimyo kompaniyalari qoladi:

SINOPEK - Xitoy integratsiya energiya va kimyo kompaniyasi. Ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatning ikkinchi yirik neft-gaz kompaniyasi (PetroChina kompaniyadan keyin). Sinopec Corp. Business neft va gazni o'rganish, neft va gazni ishlab chiqarish va tashish, neftni qayta ishlash, neft-kimyo ishlab chiqarish, mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Neft-gazni kayta ishlash quvvati bo'yicha Sinopek Korp. dunyoda ikkinchi, etilen quvvati bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadi.

2018-yil oxirida korporatsiyaga Xitoyda neft va gaz qazib olish bo'yicha umumiy maydoni 31,6 ming kvadrat metr bo'lgan 219-maydon uchun litsenziyalar berildi, bundan tashqari, taxminan 525 ming kvadrat metr maydonga yega 194 ta maydon uchun razvedka litsenziyalari mavjud yedi. Boshqa mamlakatlarda korporatsiya maydoni 322,6 kv.km bo'lgan bitta maydon uchun litsenziyaga yega, shuningdek 73 ta maydonlarda ulushi bor.

Korporatsiya umumiy quvvati yiliga 293,5 million tonna (yiliga 2,157 milliard barrel, kuniga 5,9 million barrel) bo'lgan 30 ta neftni qayta ishlash zavodiga egalik qiladi. Korporatsiyaning chakana savdo tarmog'i Hitoydagi eng yirik tarmoq bo'lib, 30 mingdan ziyod yoqilg'i quyish shoxobchalariga ega; 2018-yilda 180 million tonna neft mahsulotlari sotildi, shundan 70 foizdan ortig'i Xitoyda, daromadning taxminan 10 foizi Singapurga to'g'ri keladi.

Korporatsiya umumiy quvvati 18,8 million kubometr bo'lgan 353 neft mahsulotlarini saqlash omboriga egalik qiladi. 2020-yildagi savdosi 407,0 mlrd. dollar.

BASF — dunyodagi eng katta kimyoviy konsern hisoblanadi. Shtab-kvartira Germaniyaning Janubi-g'arbiy qismidagi Reynland-Palatinatdagi Lyudvigshafen shahrida joylashgan. Konsernga tegishli Yevropa, Amerika va Osiyoda 160 sho'ba korxonasi bor. Konsern dunyoning 170 davlati bilan aloqalarni saqlab, 7 mingdan ortiq mahsulot ishlab chiqaradi. BASF o'z mahsulotlarining 60% ni Yevropada sotadi. 2020-yildagi savdosi 70,7 mlrd. dollar.

SABIK — Sabic (Saudi Basic Industriyes Korporation) hozirgi kunda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida ishlaydi. Uning korxonalari ishchilarining umumiy soni 40 ming kishidan oshadi va uning aktivlari qiymati 88 milliard dollarni tashkil etadi.

Sabic IP bilan bir qatorda Sabic dunyoda polietilen ishlab chiqaruvchi uchinchi va polipropilen ishlab chiqaruvchi to'rtinchi o'rinni egallaydigan Sabic Polyolefins biznes bo'limiga ega.

DovDuPont — dunyodagi eng katta kimyoviy konglomerat. 2018-yilda kompaniya savdosi 86 milliard dollarni tashkil etdi, boshqa har qanday kompaniyaga nisbatan ko'proq. Biroq, 2019-yilning 1-iyunidan boshlab, Amerika konglomerati uchta mustaqil kimyoviy kompaniyaga bulindi: Dov, DuPont va Corteva kompaniyalarga.

LyondellBasell Industriyes — Amerikaning neft-kimyo kompaniyasi. Bosh qarorgohi Xyustonda joylashgan. Kompaniya butun dunyo bo'ylab beshta asosiy biznes segmenti orqali faoliyat yuritadi va polietilen va polipropilen ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilardan biri bo'lib, ular elektronika, qurilish, qadoqlash, avtomobilsozlik va shu kabilarda faol foydalanilmoqda.

LyondellBasell — plastik qatronlar va boshqa kimyoviy moddalarni qayta ishlaydigan va ishlab chiqaradigan mustaqil kimyoviy kompaniyasi. U quyidagi segmentlarda ishlaydi: olefinlar va poliolefinlar-Amerika; olefinlar va poliolefinlar — Yevropa, Osiyo, xalqaro, oraliq va hosilalar; ilg'or polimer eritmalari; qayta ishlash; va texnologiyalar. Amerikadagi olefinlar va poliolefinlar segmenti etilen va etilen bi-mahsulotlari hamda Poliolefinlarni o'z ichiga olgan olefinlar ishlab chiqaradi va sotadi. 2020-yildagi savdosi 34,7 mlrd. dollar.

Mitsubishi Chemikal — Mitsubishi korporatsiyasining tarkibiy qismidir. O'tgan yili kompaniya uskunalarni tozalash va qoplash bo'yicha Germaniyaning Cleanpart Group kompaniyasini sotib oldi. Mitsubishi ilgari ham Shinryo sho'ba korxonasi orqali shu kabi xizmatlarni taqdim etgan. 2020-yilgi savdo: \$33,4 mlrd.

LJ Chem — Janubiy Koreyadagi eng yirik kimyoviy kompaniya. Bu LJ Groupning bir qismidir. Kompaniyaning Janubiy Koreyada 8 ta ishlab chiqarish maydoni, boshqa mamlakatlarda 14 ta fabrikasi (shulardan 12 tasi Osiyoda, 1 tasi Polshada va 1 tasi AQSHda), 10 ta marketing bo'linmalari, 5 ta vakolatxonalari (shu jumladan, Moskvadagi vakolatxonasi) va 2 ta tadqiqot markazlari mavjud.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar yuqori texnologiyali maxsus materiallar ishlab chiqarishning asosiy qismini innovatsiyalar va uzoq muddatli maqsadli qayta qurish orqali jamladilar. Shu bilan birga, kimyo sanoati uchun asosiy mahsulotlarning asosiy yetkazib beruvchilari sifatida ahamiyatini yo'qotmagan yirik sanoat korxonalari arzon xom ashyo va arzon ishchi kuchi bilan ta'minlangan hududlarga faol ravishda ko'chiriladi.

Jahon kimyo sanoati qiyofasini o'zgartiradigan jiddiy omil – Yaqin Sharqda neft-kimyo mahsulotlarining faol rivojlanishi va Rossiya mahsulotlarining ba'zi yirik iste'molchilari, masalan Xitoyning mahsulotlarni import qilishdan o'z ishlab chiqarishiga va eksportiga o'tishidir.

Xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, global kimyo sanoatining yillik rivojlanish darajasi 3,1%, shu jumladan rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 5,5%, Yevropa Ittifoqida 2% bo'lishi kutilmoqda.

CEFIC ekspertlarining prognoziga ko'ra, 2030-yilga kelib dunyoda kimyo va neft-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 2014-yilga nisbatan deyarli ikki baravarga oshadi va 6,25 trln. Yevro. Shu bilan birga, Xitoy mahsulotlarining ulushi 44 foizgacha ko'tariladi.

Xitoy, yaqin Sharq va Janubi-G'arbiy Osiyoda kimyo sanoati ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish ushbu mamlakatlarning kimyo va neft-kimyo mahsulotlari jahon bozorida o'rnini sezilarli darajada o'zgartiradi va xaridorlar uchun raqobatni kuchaytiradi.

Katta tonnajli mahsulotlarni (ammiak, polietilen, polipropilen va boshqalar) ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik darajasi bilan birlik quvvatlarini oshirish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari deyarli tugadi (optimal darajaga deyarli erishildi).

"O'zkimyosanoat" AJning hozirgi bosqichdagi asosiy vazifasi — ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va yuqori qayta ishlashning yangi mahsulotlarini tashkil etish.

"O'zkimyosanoat" AJ O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini ifodalovchi ajralmas korporativ tuzilma.

"O'zkimyosanoat" AJ tarkibiga 9 ta yirik sanoat korxonasi kiradi.

2020-yil yakunlariga ko'ra bozorbop mahsulotlar ishlab chiqarish 7,3 trln. so'm, 2019-yilga o'sish sur'ati 108,2% ni tashkil etdi.

Jahon mineral o'g'itlar bozorining narx siyosati

Karbamid


Axborot-tahlil agentliklarining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning yanvar-may oylarida dunyoning deyarli barcha mintaqalarida 1tonna karbamidning o'rtacha narxi 70 dollarga oshgan. Narxlar MMTS tenderi fonida oshmoqda.

Karbamid bozori konyukturasi makkajo'xori narxining oshishi va tenderda Hindiston katta hajmda makkajo'xori sotib olishi tufayli yaxshilandi. Bu Aqsh, Braziliya va Argentinada karbamidga bo'lgan yuqori talabni ko'rsatadi.

Kemalarning ijara stavkalari oldindan aytib bo'lmaydigan darajada o'zgarib boshladi. Endi yuk tashuvchilarning xizmat narxlari yanada qimmatlashmoqda, bu esa yetkazib beruvchilar uchun savdo xatarlari oshganligini ko'rsatadi. Narxlar ko'tarilmoqda, ammo kelajakda pasayadi.

Hindiston tenderidan so'ng, granula ko'rinishida bo'lmagan karbamid uchun talabning pasayish davri bo'lishi mumkin hamda iyun oyida va undan keyin yetkazib beriladigan partiyalar narxi tushishni boshlaydi. Shunga qaramay, granula ko'rinishidagi karbamid mahsuloti sotuvchilari ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Karbamid faol mavsumiy talabga ega bo'lib, mavsum o'tishi bilan yil oxirigacha uning narxi 30-40 dollargacha pasayish ehtimoli bor.

2021 yil yanvar-may oylarida karbamid narxi dinamikasi



QORA DENGIZ

Ukraina portlaridan jo'natilgan karbamid hozir deyarli sotilmayapti. Aprel oyi yuklari allaqachon to'liq sotilgan, faqat Odessa porti zavodida may oyida jo'natiladigan mahsulotlar mavjud, ammo bu ishlab chiqaruvchi Hindiston tenderida bo'lib o'tadigan savdolarni kutmoqda.

"Dneprazot" korxonada 15-maydan boshlab 1 oy davomida profilaktika ishlarini olib boradi. Ostchem kompaniyasiga tegishli zavodlar may oyida ichki bozorning karbamidga bo'lgan talabini qondirish bilan cheklanadi va ular faqat iyun oyida karbamidni eksport qilishni boshlaydi.

BOLTIQ DENGIZI

Xaridorlarning aytishlariga ko'ra, Rossiya ishlab chiqaruvchilarida may oyida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning deyarli barchasi oldindan sotib bo'lingan. Odatda, o'g'it sifatida eksport qilinadigan granula ko'rinishida bo'lmagan karbamidning bir qismi endi ichki bozorga yoki sanoat ishlab chiqaruvchi talabgorlarga yetkazib berilmoqda.

Ammiakli selitra

JAHON BOZORI

Gruziyaning ammiakli selitra o'g'iti hanuzgacha bozorda 1 tonnasi uchun (*FOB Gruziya, qopsiz*) 235 dollardan sotilmoqda. Rossiyada ishlab chiqilgan ammiakli selitra 1 tonnasi uchun *Bolتيq dengizi portlarida (FOB, qopsiz)* 225-230

dollardan taklif etilmoqda. Qora dengiz va Boltiqbo'yi hududlarida talab pastligicha qolmoqda. Turkiyaning "Gemlik" ishlab chiqaruvchisi 1 tonna ammiakli selitra o'g'itini (*FOB Turkiya, qopsiz*) 275 dollardan taklif qilmoqda, biroq xorijiy xaridorlar 1 tonnasiga (*FOB Turkiya, qopsiz*) 220 dollardan ortiq to'lashga tayyor emas. Bozor savdogarlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, "Toros" uch hafta oldin Turkiyaning (*FOB, qopsiz*) tonnasi 240 dollardan sotilgan ammiakli selitrasini endi Afrikaga jo'natmoqda. Ohakli-ammiakli selitra va ammiakli selitrage bo'lgan talab G'arbiy Yevropa mamlakatlarida hamon pastligicha qolmoqda. Yevropalik ishlab chiqaruvchilar 2022-yil uchun o'g'itlar narxini hali belgilab olganicha yo'q.

Kaliy xlorid.

Yevropada granulali kaliy xloridning narxi o'zgarmadi, AQSHda esa kotirovkalar pasaygan, chunki ko'plab xaridorlar kerakli hajmlarni sotib olib bo'lishgan. Asosan, Janubi-Sharqiy Osiyoda ushbu mahsulot eng kamida 1 tonnasi 280 dollardan taklif etiladi. Biroq palma yog'i ishlab chiqariladigan mamlakatlarda hozirda o'tkaziladigan tenderlar birmuncha kamayganini hisobga olsak, bu narx qanchalik barqarorligiga hali yana bir karra ishonch hosil qilish kerak.

Turli asosiy savdo hududlarida kaliy xlorid narxlari o'rtasidagi ortib borayotgan tafovut keyingi bir necha oy ichida yo'qolmasligi oydinlashmoqda. AQSH va Yevropa mamlakatlarida narxning oshish istiqbollari minimaldir, chunki ko'pchilik xaridorlar zarur bo'lgan hajmlarni allaqachon xarid qilib bo'lishgan. Biroq Braziliya va Janubi-Sharqiy Osiyoda narxning o'sishi taklifning cheklanganligi tufayli davom etadi, Janubi-Sharqiy Osiyoda esa narxlar yaqinda bo'lib o'tadigan xaridlar tenderlari bilan bog'liq bo'ladi.

XITOI

